

CHET TILI DARSLARIDA TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Sabirova Shaxlo
Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Bugungi kunda turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi muloqotning intensivlashuvi tufayli xalqaro savdo, turizm, ta'lif va siyosat kabi sohalarda madaniyatlararo muloqotning ahamiyati sezilarli darajada oshmoqda. Madaniyatlararo muloqot "insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi, uning aql-zakovati mahsulidir" [2:716].

Ta'lif sohasidagi xalqaro hamkorlikning kuchayishi, akademik almashinuv bo'yicha turli dastrularning ommalashishi talabalar xalqaro mobilligining oshishiga olib kelmoqda. So'ngi yillarda "Ish va Sayohat" dasturlari yoki kasbiy ta'lif uchun Germaniya Federativ Respublikasiga borayotgan yoshlarimizning soni ham oshib bormoqda. Bunday sharoitda chet tilini o'rganuvchi talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ahamiyati ayniqsa dolzarblashmoqda.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi — bu boshqa madaniyatlar bilan samarali va hurmat bilan muloqot qilish qobiliyatidir. Bu kompetensiyani shakllantirish turli xil madaniyat vakillari orasida bo'ladigan muloqotda til, madaniyat, urf-odatlardagi farqlar, sterotiplar va boshqa sabablar tufayli yuzaga keladigan tushunmovchiliklarning oldini olish yoki ularni ularni kamaytrish imkonini beradi" [3: 8-9]. Bu kompetensiya tilni o'rganishda tilning grammatik va leksik xususiyatlaridan tashqari, tilni o'rganuvchining o'z madaniyati va boshqa madaniyatlar haqidagi bilimlari, qadriyatlar va an'analari haqidagi tushunchalarini ham o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya o'z ichiga turli madaniy qadriyatlar, odatlar, tillar va qarashlarni tushunish, hurmat qilish va ularni hisobga olishni oladi. Bunday kompetensiya, shuningdek, odamlar orasida madaniyatlararo farqlarni inobatga olish, nizolarni hal qilish va muammolarga samarali yechimlar taklif qilishni o'z ichiga oladi. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining shakllanishi talabalarga nafaqat tilni yaxshi o'rganishda, balki boshqa madaniyatlar bilan muloqot qilishda do'stona va samarali bo'lishda yordam beradi.

Ma'lumki, maktab o'quv dasturining deyarli har bir predmeti o'quvchilarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga ma'lum hissa qo'shadi. Bu jarayonda "xorijiy til" fani muhim o'rinn tutadi, chunki aynan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ushbu fanni o'qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi [1: 84].

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini takomillashtirishda o'qituvchining roli juda katta. O'qituvchi talabalarga madaniyatlararo muloqotning nazariy jihatlari haqida ma'lumot berish bilan birga, amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarni bu ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirishi kerak. O'qituvchilar turli madaniy kontekstlarda tilni qanday ishlatish, xulq-atvor va ijtimoiy me'yorlar haqida talabalarga aniq misollar keltirib, ularni o'rgatishlari muhimdir. O'qituvchilar o'quv dasturiga turli xil madaniy mazmunni integratsiyalash, madaniy me'yorlar va qadriyatlar bo'yicha muhokamalarni osonlashtirish va talabalarni o'zlarining madaniy o'ziga xosliklari haqida fikr yuritishga undash orqali madaniy xabardorlikni oshirishlari mumkin [1:83]. Bundan tashqari, talabalarning madaniyatlararo muloqotdagi o'zlarini qanday tutishlari, qaysi holatlarda qanday xatti-harakatlar qo'llanilishi kerakligini tushuntirib berish ularning ko'nikmalarini oshiradi.

Chet tili darslarida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda bir nechta metodlar va yondoshuvlar mavjud. Quyida ularning ba'zilariga to'xtalamiz:

- *Madaniyatlararo o'qitishning integratsiya yondoshuvi*. Talabalarga chet tilini o'rganish jarayonida faqat til o'rgatish emas, balki o'sha tilga xos madaniy muhitni ham tanishtirish zarur. O'qituvchi darsda turli madaniyatlarga oid mavzularni muhokama qilish orqali talabalarni turli madaniyatlar haqidagi bilimlar bilan tanishtiradi. Masalan, nemis tilini o'rganayotgan talabalar uchun Germaniyada yashovchi odamlarning an'analari, ularning bayramlari, urf-odatlari haqida darslar tashkil etish mumkin. Bu nafaqat tilni o'rganishni qiziqarli qiladi, balki madaniy tushunishni ham rivojlantiradi.

- *Interaktiv va tajriba asosidagi metodlar.* Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun talabalarni o'zaro muloqotga kiritish muhimdir. Talabalar o'zaro guruhlarda ishlashlari, turli madaniyatlar bilan bog'liq vaziyatlarni muhokama qilishlari yoki rasmiy va norasmiy muloqotlar o'rtasidagi farqlarni o'rganishlari kerak. Misol uchun, nemis tilida gaplashayotgan shaxsning rasmiy va norasmiy muloqotdagi farqlari haqida suhabtlar o'tkazish talabalarni madaniyatlararo o'zgarishlarga tayyorlaydi. Masalan, nemis tilini o'rganayotgan talabalar uchun Germaniya madaniyati haqida darslar o'tkazish, nemis tilidagi salomlashuv va xayrlashish odatlari (masalan, "Wie geht's?" yoki "Auf Wiedersehen") haqida so'zlashish talabalarga madaniy farqlarni tushunishda yordam beradi.

- *Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar.* Madaniyatlararo muloqotni o'rganishda rolli o'yinlar va simulyatsiyalar juda samarali bo'lishi mumkin. Talabalar real hayotdagi turli madaniyatlararo vaziyatlarni simulyatsiya qilgan holda, o'zaro muloqot qilishni, madaniyatlararo muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Masalan, bir guruh nemis tilida muloqot qilayotgan ikki shaxsning bir-birini tushunishi va samarali muloqot qilishiga yordam beradigan rolli o'yinlar o'ynashi mumkin. Masalan, talabalarga ikki turli madaniyatdagi odamlarning bir-biriga qanday murojaat qilishlarini, qanday pozitsiyalardan foydalanishlarini va muloqotda qanday qoidalarni rioya qilishlarini ko'rsatish mumkin. Rolli o'yinlar yordamida talaba o'zini real madaniyatlararo vaziyatda, masalan, nemis tilida muloqot qilayotgan shaxs sifatida tasavvur qilishi mumkin.

- *Filmlar va adabiyotlardan foydalanish.* Madaniyatlarni yaxshiroq tushunish uchun filmlar, kitoblar va maqolalardan foydalanish juda foydalidir. Germaniya va boshqa nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlar haqidagi filmlar orqali talabalar, ularning kundalik hayoti, til va madaniyatini yanada chuqurroq o'rganishlari mumkin. Filmlar yoki videolar, o'rgatilayotgan til madaniyatining kundalik hayotini ko'rishga imkon beradi. Shuningdek, filmlar va video materiallar yordamida talabalarga madaniyatlararo muloqotning nozik jihatlarini ko'rsatish mumkin. Chet tilidagi qisqa hikoyalarni o'qish orqali talaba tili o'rganilayotgan xalqning tarixiy va madaniy an'analari, qadriyatlari va hayot tarzini anglab etadi. O'qilgan materiallar asosida muhokama qilish, talabalarga madaniyatlararo tafovutlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bunday vizual va adabiy resurslar madaniyatlararo tushunishni osonlashtiradi.

- *Qiyoslash va tahsil.* Talabalar o'rganayotgan tilning madaniyatini o'zlarining madaniyati bilan taqqoslashlari orqali madaniyatlararo farqlarni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Misol uchun, o'zbek va nemis madaniyatlarini solishtirish orqali ularning qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va turmush tarzidagi farqlarni tahlil qilish o'rganuvchilarga o'zaro muloqotda tushunmovchiliklarni oldini olishga yordam beradi.

- *O'zaro baholash.* Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish jarayonida o'zaro baholash va konstruktiv fikrlarni taqdim etish muhimdir. Talabalar o'zaro tajriba almashish, bir-birining fikrlarini tinglash va ular haqida konstruktiv baholash orqali o'zlarining madaniyatlararo muloqotdagi salohiyatlarini oshirishlari mumkin.

Demak, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish chet tili o'qitishning ajralmas qismi bo'lib, talabalarni global dunyoda muvaffaqiyatli va samarali muloqot qiladigan shaxslar sifatida tayyorlaydi. Bu kompetensiyani shakllantirishda metodik yondoshuvlar talabalarga nafaqat tilni o'rganish, balki boshqa madaniyatlar bilan muloqotda o'zlarini qanday tutishni, o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Chet tilini o'rganayotgan talabalar uchun yuqorida keltirilgan metodlar ular uchun nafaqat til o'rganishni, balki madaniyatlararo o'zaro aloqalarini rivojlantirishni ham imkoniyat yaratadi. O'qituvchining darsda bu metodlarni muvaffaqiyatli qo'llashi talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda katta rol o'ynaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tajiboeva F. Didactic, pedagogical and psychological factors in the development of students' intercultural communication competence in English. Jamiyat va Innovatsiyalar, 5/1-son, 2024, 82-86-bb.

2. Usmonov Sh. Sh. Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda umuminsoniy madaniyatning o‘rni. “Methodology of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and their solutions”, Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 15 mart 2024.
3. Мингилева Т.В., Эрмиди И.Г. Актуальные проблемы межкультурной коммуникации. Успехи химии и химической технологии, №11, 2021. – с. 8-9.
4. Мусина Л.М., Мустафина Д.Н. Межкультурная коммуникация: идентификация современных вызовов // Мир науки. Социология, филология, культурология, №4, 2020.